

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASHNI TASHKIL ETISH TARTIBI VA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Pardayeva Zulfizar Alimovna

*buxgalteriya hisobi
kafedراسي dotsenti
Toshkent moliya instituti
pardayevazulfizar97892@gmail.com
ORCID:0000-0003-1465-6548*

Sharipova Shohida Abdunabiyevna

*buxgalteriya hisobi
kafedراسي assistenti
Toshkent moliya instituti
SharipovaShoxida.92@gmail.com
ORCID:0000-0002-8758-5077.*

Annotatsiya

Maqolada tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish tartibi va uning joriy holati, tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirishga doir amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda ularning oldingi yillarga nisbatan o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Shunugdek, o‘tgan va joriy yillarda tijorat banklar kreditlar tizimida yusaga kelgan muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kreditlash, garov, muammoli kreditlar, kredit portfeli, kafil, banklararo kredit, foiz, foyda, tijorat bank, bank aktivlari.

ПОРЯДОК ОРГАНИЗАЦИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КРЕДИТОВАНИЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Пардаева Зульфизар Алимовна

*доцент кафедры
бухгалтерского учета
Ташкентский финансовый институт
pardayevazulfizar97892@gmail.com
ORCID:0000-0003-1465-6548*

Шарипова Шахида Абдунабиевна

*ассистент кафедры
бухгалтерского учета
Ташкентский финансовый институт
SharipovaShoxida.92@gmail.com
ORCID:0000-0002-8758-5077*

Аннотация

В статье анализируются современное состояние кредитования в коммерческих банках, меры, реализуемые по совершенствованию практики банковского кредитования, а также тенденции их изменения по сравнению с предыдущими годами. Выявлены проблемы, появившиеся в последнее время в деятельности коммерческих банков, даны рекомендации и предложения по их устранению.

Ключевые слова: кредитование, ипотека, проблемные кредиты, кредитный портфель, поручитель, межбанковский кредит, проценты, прибыль, коммерческий банк, активы банка.

PROCEDURE FOR ORGANIZING LENDING IN COMMERCIAL BANKS AND WAYS OF ITS IMPROVEMENT

Pardayeva Zulfizar Alimovna

*Associate Professor of the
Department accounting,
Tashkent Institute of Finance
pardayevazulfizar97892@gmail.com
ORCID:0000-0003-1465-6548*

Sharipova Shahida Abdunabiyevna

*Assistant of the
Department of Accounting
Tashkent Institute of Finance
SharipovaShoxida.92@gmail.com
ORCID:0000-0002-8758-5077*

Abstract

In the article, the order of crediting in the commercial banks of our Republic and the analysis of its current state, the measures implemented to improve the practice of lending in commercial banks, and the trends of their changes compared to previous years are compared. The article analyzes the past and current years, identifies problems, and gives recommendations for eliminating these problems.

Keywords: lending, mortgage, problem loans, loan portfolio, guarantor, interbank loan, interest, profit, commercial bank, bank assets.

Kirish

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan

foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishda asosiy ish deb talab qilinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi Farmonida kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmining mo'tadil o'sishiga amal qilish va kreditlashning faqat bozor shartlari asosida amalga oshirilishiga e'tibor berish alohida ta'kidlab o'tilgan. Shunisi ahamiyatliki, ushbu strategiyada yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o'zaro to'ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish bo'yicha olib boriladigan ishlar belgilab berilgan [1]. 2021 yil yakunlari bo'yicha iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar jami 166 240.9 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagisidan 39033.4 mlrd so'mga ko'pdir [2].

Adabiyotlar sharhi

Kredit munosabati – bu, eng avvalo, ishonchdir. «Kredit» so'zi lotincha *credit*, ya'ni «ishonch» ma'nosini beruvchi so'z o'zagidan olingan. Lekin bu nuqtai nazarga boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan: nemis iqtisodchi olimi V.Leksising fikricha, kredit munosabatining yuzaga kelishi uchun qarz beruvchining ishonchi muhim ahamiyatga ega emas, kunlik tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, qarz beruvchilar qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatiga ishonchdan ko'ra, ishonchsizlik ruhiyatida bo'ladilar va shuning uchun ham ular o'z manfaatlarining to'liq himoyasini ta'minlash uchun kafolat talab etadilar. V.Leksis ham o'z fikrida bir jihatdan xaq, chunki u alohida bir kredit munosabati haqida emas, balki kredit munosabatlarining yig'indisi haqida fikr bildiradi. Professor «ishonch» kredit mohiyatida ma'lum bir xususiyatga ega ekanligini inkor etmay, balki «ishonch»ning kredit munosabatlarida hal qiluvchi jihatga ega emas, deb hisoblaydi. Tijorat banklarida eng ko'p daromad keltiruvchi operatsiyalarning asosiysi kreditlash operatsiyasidir. Shunday ekan mijoz va bank o'rtasida eng avvalo ishonch kredit munosabatining ajralmas qismi sifatida yuzaga kelishi kerak [3].

Taniqli iqtisodchi olim O.A. Lavrushinning tadqiqotlari ko'rsatadiki, kredit umumiy xarajatlarni iqtisod qilish imkonini beradi va shu jihatdan olganda iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Tijorat banklaridan ajratiladigan kredit turlariga to'xtaladigan bo'lsak, u ma'lum guruhlar miqyosida tasniflanadi. Xususan, Sh.Z. Abdullayeva kreditlarni quyidagicha tasniflangan: kredit riski darajasi, kredit obyektlari, kredit muddati, kreditning hajmi va uning ta'minlanganligi, mijozning kreditga layoqati, moliyaviy holati, mulk shakli va hokazolar [5]. Ko'rinib turibdiki, kredit o'z mohiyati bilan rivojlangan tuzilmaga ega.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklari faoliyatida kreditlash jarayoni to'g'ri hamda samarali tashkil etilishi natijasida bankning asosiy daromadlari shakllantiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bank aktivlarining asosiy qismi kredit qo'yimlaridan iborat. Demak, bank kreditlarining YaIMdagi ulushining ortib borishi iqtisodiyotda jadal o'sish sur'atlarini ta'minlaydi. Kreditlashning bank aktivlaridagi salmog'ini quyidagi jadval orqali tahlil qilib chiqamiz.

1-jadval.

Tijorat banklarining kredit qo'yimlari dinamikasi (mlrd so'mda)*

| Ko'rsatkichlar | 01.01.2018 | 01.01.2019 | 01.01.2020 | 01.01.2021 | 01.01.2022 |
|---------------------------------------------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| Kredit qo'yimlari | 110572.1 | 167390.6 | 211580.5 | 276 974,8 | 326 385,6 |
| Bank aktivlari | 166631.8 | 214419.6 | 272726.9 | 366 121,1 | 444 922,5 |
| Kredit qo'yimlarining bank aktivlaridagi ulushi, foizda | 66.35 | 78.06 | 77.58 | 75.65 | 73.35 |

*O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti – Foyqalanish manbai: www.cbu.uz


1-jadvalda keltirib o'tilgan besh yillik statistik ma'lumotlarning tahlili asosida shuni aytish mumkinki, bank aktivlaridagi kredit qo'yimlarining ulushi 66.35% dan 73.35% ga sezilarli darajada o'sgan. (01.01.2018y-01.01.2022y). Ammo, 01.01.2019 yil va 01.01.2022 yillar oralig'ida bank aktivlari tarkibida kredit qo'yimlarining ulushi 78.06% dan 73.35% gacha tushgan, shuningdek, bank aktivlari miqdori 01.01.2018 yildagi 166631.8 mlrd so'mdan 444922.5 mlrd

soʻmgacha ortgan. Ushbu keltirib oʻtilgan maʼlumotlar asosida shuni maʼlum qilish mumkinki, bank aktivlari hajmi besh yillik davr moboynda oʻsgan, lekin 01.01.2019 yildan 01.01.2022 yilgacha boʻlgan davrda kredit qoʻyilmalarining bank aktivlaridagi ulushi kamayib borgan. Buning asosiy sababi bank aktivlari tarkibida bosh aktivi turlarining ortib borayotganligidir.

Yuqoridagi statistik maʼlumotlarni tijorat banklari kesimida tahlil qiladigan boʻlsak, 2022-yil 1yanvar holatiga koʻra, jami tijorat banklarining aktivlar qiymati 444 922.5 mlrd soʻmdan iborat boʻlib, kredit qoʻyilmalari miqdori 326 385,6 mlrd soʻmga teng. Bank aktivlari hamda kredit qoʻyilmalarining 85 foizdan ortiq qismi davlat ulushi mavjud banklar hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Bu borada, sogʻlom raqobat muhitini yaratish maqsadida davlat ulushi mavjud banklarni xususiylashtirish boʻyicha chora-tadbirlar olib borilib, yirik banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Quyida davlat ulushi mavjud va mavjud boʻlmagan banklarning jami bank aktivlari va kredit qoʻyilmalaridagi ulushini koʻrishimiz mumkin (1-diagramma).

1-diagramma.

Tijorat banklari kesimida aktiv va kredit qoʻyilmalarining ulushi, foizda*



*Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti. – Foyqdalanish manbai: www.cbu.uz


Yuqoridagi diagramma maʼlumotlari asosida shuni taʼkidlash mumkinki, 01.01.2022 yil holatiga jami bank aktivlari va jami kredit qoʻyilmalari tarkibida davlat ulushi mavjud banklarning ulushi yuqoridir (81.5% – 85.8%).

2-diagrammada banklar tomonidan ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar hajmini koʻrishimiz mumkin. Xususan, 2020 yil holatiga koʻra, jismoniy shaxslarga 28466.6 mlrd soʻm kredit ajratilgan boʻlsa-da, 48010.0 mlrd soʻmi yuridik shaxslarga yoʻnaltirilgan. 2021yil mobaynida jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qiymati 2020 yilga nisbatan taxminan 12054.3 mlrd soʻmga koʻproq boʻlib, mos ravishda 40520.9 va 28466.6

mlrd so`mni tashkil etgan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ajratilgan kreditlar eng past natija, ya'ni 2021yilda 3099.9 mlrd so`m va 2020 yilda 2564.0 mlrd so`mni tashkil etgan.

2-diagramma.

**Tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga
ajratilgan kreditlar (mlrd so`mda) ***



*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti – Foyqdanlash manbai: www.cbu.uz

Kreditlarni tasniflash O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yil 10 dekabrda 2696-3- son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yoqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Nizomga muvofiq [6] amalga oshiriladi. Ushbu nizomga muvofiq tijorat banklari aktivlari, shu jumladan kreditlari ham “standart”, “substandard”, “qoniqarsiz”, “shubxali” va “umidsiz” toifalariga bo‘lib tasniflanadi va ular bo‘yicha munosib tarzda kredit qoldiqlarining 1; 10; 25; 50 va 100 foizli miqdorida zaxiralar shakllantiriladi. Diversifikatsiya yordamida kredit portfelining umumiy risk darajasini kamaytirishga erishish mumkin. Ba’zida alohida olingan kredit bo‘yicha risk o‘zgarmagan xolda haqiqiy olinadigan daromad kutilayotgan daromadga tenglashishi mumkin. Ta’kidlash joizki, respublikamizning yirik tijorat banklarida kredit portfelining diversifikatsiya darajasi past. Mamlakatimiz tijorat banklari kredit portfelida sanoatning ulushi nihoyatda yuqori bo‘lib, o‘rtacha 40 foizni tashkil etadi. Oxirgi yillarda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortib borishi bank tizimi uchun ijobiy holat hisoblanadi. Jismoniy shaxslarni kreditlash hajmining oshirilishi mamlakatda ichki talabni rag‘batlantiradi va xo‘jalik sub’ektlarining faoliyatini jadallashtiradi. Shu bilan birga kreditlarning milliy iqtisodiyot

barqarorligini ta’minlashdagi roli oshadi. Qolgan soha va tarmoqlarning ulushi esa bundan ham past ekanligini ko’rishimiz mumkin va bu bank tizimida kredit riskining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

2-jadval.

Mamlakat tijorat banklarining kredit portfeli tarkibi*

| Ko’rsatkichlar nomi | 01.01.2020 y. | | 01.01.2021 y. | | 01.01.2022 y. | |
|--------------------------------------------|----------------|----------------|------------------|----------------|---------------|----------------|
| | mlrd so’m | ulushi, foizda | mlrd so’m | ulushi, foizda | mlrd so’m | ulushi, foizda |
| Jami kreditlar | 211 581 | 100 | 275 280.6 | 100 | 324 681.5 | 100 |
| Sanoat | 75 636 | 35.7 | 102 162.4 | 37.1 | 117 638.5 | 36.2 |
| Qishloq xo’jaligi | 17 205 | 8.1 | 28 080.5 | 10.2 | 35 022.4 | 10.8 |
| Qurilish sohasi | 5 930 | 2.8 | 7 380.3 | 2.7 | 9 281.8 | 2.8 |
| Savdo va umumiy xizmat | 14 480 | 6.8 | 19 916.2 | 7.2 | 27 406.0 | 8.4 |
| Transport va kommunikatsiya | 23 516 | 11.1 | 26 626.0 | 9.7 | 28 708.1 | 8.8 |
| Moddiy va texnik ta’minotni rivojlantirish | 3 302 | 1.6 | 3 962.1 | 1.4 | 3 814.4 | 1.2 |
| Uy-joy kommunal xizmati | 2 512 | 1.2 | 3 759.0 | 1.4 | 2 284.1 | 0.7 |
| Jismoniy shaxslar | 39 934 | 18.9 | 54 887.7 | 19.9 | 69 496.2 | 21.4 |
| Boshqa sohalar | 27 513,8 | 13.7 | 28 506.4 | 10.3 | 31 030.0 | 9.6 |

*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti: – Foyq dalanish manbai: www.cbu.uz


Xalqaro amaliyotda tijorat banklari kredit portfelinin g mijozlarning tarmoq xususiyatiga ko’ra diversifikatsiya qilish bo’yicha me’yoriy mezon qilib 25% olingan. Ya’ni tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqda to’planib qolishi mumkin emas. Respublikaning ayrim yirik banklarida ushbu ko’rsatkichning darajasi 50 foizdan yuqoridir.

Kreditlashning asosiy manbai banklarning o’z mablag’lari hisobiga emas, balki ma’lum vaqt o’tishi bilan foydalanganlik uchun, odatda malum foiz to’lovi bilan qaytarilshi kerak bo’lgan xo’jalik yurituvchi subektlarning, aholi va davlatning vaqtincha bo’sh pul mablag’larini jalb qilish orqali shakllanadi. Bu mablag’larni omonatchilarga to’liq xajmda va belgilangan muddatlarda qaytarib berish uchun tijorat banklari o’zlari, avvalambor, berilgan kreditlarni o’z vaqtida qaytishini taminlashi zarur. Aynan mana shu muammo bugungi kunda respublika bank tizimi oldida echilishi kerak bo’lgan eng dolzarb masalalardan biri bo’lib turibdi.

Banklarda qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlarni muammoli aktiv yoki kredit deb atashimiz mumkin.

3-diagramma.

**Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi
ulushi dinamikasi, foizda***



*O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti. – Foyqdanish manbai: www.cbu.uz

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2017 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan muddatda muntazam ravishda o‘shish tendentsiyasiga ega bo‘lgan. 2017 yilda eng past ko‘rsatkich 1.2 %ni tashkil etgan. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich 2019 yilga qadar 1.5% ga ko‘tarilgan (2018 yilda 1.28%, 2019 yilda 1.5%). 2020 yilda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2.1% darajada sezilarli o‘tdi. 2021-2022 yillarda esa bu ko‘rsatkich keskin ko‘tarildi va bank tizimi uchun salbiy holat hisoblangan 6.2 %lik darajaga yetdi.

Tijorat banklarining faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari qo‘llaniladi:

Mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabali kreditlash shakli. Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kredit berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan keyin ssuda hisobraqami ochiladi va kredit bir marotabalik to‘lov shaklida mol yetkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchiga tashlab beriladi.

Mijozni kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash shakli. Kreditlashning ushbu shaklida mijozga kreditlash limiti ajratiladi va ushbu limitdan foydalanish davri belgilanadi. Shuningdek, kreditning foiz stavkasi va mijozdan undiriladigan bir marotabalik komission to‘lov stavkasi belgilanadi Mijozdan qo‘shimcha ravishda undiriladigan komission to‘lov kredit liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlashda tijorat banki uchun likvidlilik riskining mavjudligi bilan belgilanadi. Chunki mijoz talab qilgan har qanday vaqtda bank kreditni chiqarib berishi shart.

Kreditlashning yana bir shakli kontokorrent bo‘lib, nemis tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda (Germaniya, Avstriya, Shveytsariya) yaxshi

rivojlangan. Kreditlashning ushbu shaklida mijozning joriy hisobi yopiladi va uning o‘rniga kontokorrent hisobraqami ochiladi. Kredit olgan mijozning faoliyatidan keladigan barcha tushumlar kontokorrent hisobraqamining kreditida aks etadi, uning majburiyatlari yuzasidan barcha to‘lovlari kontokorrent hisobraqamining debetida aks etadi. Faktoring kreditlash shaklida kreditning foizidan tashqari, faktoring xizmati ko‘rsatganligi uchun mijozdan qo‘shimcha komission to‘lov undiriladi. «Xalqaro faktoring to‘g‘risida»gi xalqaro konventsiyaga (UNIDRUA) asosan, operatsiya faktoring operatsiyasi sifatida tan olinishi uchun 4 ta talab mavjud va bu talablardan kamida 2 tasi bajarilsa, operatsiya faktoring operatsiyasi sifatida tan olinadi. Ular quyidagilar:

1. Qarz majburiyatlarini oldindan to‘lash shaklidagi kreditlashning mavjudligi.
2. Mol yetkazib beruvchining buxgalteriya hisobini yuritish.
3. Mol yetkazib beruvchining debitor qarzdorligini inkassatsiya qilish.
4. Mol yetkazib beruvchini kredit riskidan sug‘artalashning mavjudligi.

Respublika tijorat banklarining faoliyatidagi ayrim ko‘rsatkichlarni tahlil qilish jarayonida shu narsa aniq bo‘ldiki, tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasida echimini topmagan ayrim muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Respublikaning qator tijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi muammosi.
2. Respublika tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotining takomillashmagani. Shuningdek, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kredit xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq quyidagi muammolarni alohida ko‘rsatib o‘tish zarur:

aholi ayrim toifasining to‘lov qobiliyati pastligi va oladigan daromadlar yetarli darajada emasligi;

olingan kreditlarning ko‘pchilik holatlarda maqsadsiz ishlatilishi;

tijorat banklarida jismoniy shaxslarning kredit qobiliyatini baholash bo‘yicha takomillashgan tizimning mavjud emasligi;

banklarning etarli resurs bazasiga ega emasligi;

iste‘mol krediti ob‘ekti sifatida tanlangan tovar va xizmatlar bahosining sun‘iy ravishda oshirilishi.

3. Tijorat banklari kreditlash amaliyotida kredit shakllaridan to‘laqonli foydalanilmayotganligi. Ularning faoliyatida kreditlash shakllaridan optimal foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki kreditlash shaklining to‘g‘ri tanlanishi kreditlash samaradorligini oshiradi, mijoz va bankning kreditlardan ma‘lum darajada naf ko‘rishini ta‘minlaydi.

4. Banklarda mijozlarning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlarini baholash tizimining takomillashmaganligi. Respublika tijorat banklarining kreditlash amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda kamchiliklarning mavjudligi kreditlashning samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan tijorat banklarining kreditlash amaliyoti bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda ularning kreditlash salohiyatini oshirish yo'llarini takomillashtirish ijobiy natijalarga olib keladi hamda tijorat banklari tomonidan real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarida ularning ishtirokining faollashuviga olib keladi.

Xulosa

Tijorat banklari kreditlash amaliyotini takomillashtirilishi va zamonaviy usullarining oqilona qo'llanilishi kichik korxonalar va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning, eng avvalo, jamiyatni ijtimoiy va siyosiy yangilash, shuningdek aholi farovonligini va bandligini oshirish, ichki iste'mol bozorini milliy mahsulotlar bilan to'ldirish, ishlab chiqarishni sifat darajasiga ko'tarish va eksport salohiyatini oshirishning bosh dastagi hisoblanadi. Tahlil va kuzatishlar asosida tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish orqali kreditlash salohiyatini oshirish. Tijorat banklari uzoq muddatli resurslarni jalb qilishda asosiy e'tiborni nodepozit manbalarga qaratishi maqsadga muvofiq. Jumladan, tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasi hajmini oshirish yo'li bilan barqaror resurs bazani shakllantirish lozim.

2. Respublikamiz tijorat banklari kreditlash amaliyotida zamonaviy kreditlash shakllaridan keng foydalanish lozim. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning zamonaviy usullarini qo'llash banklar va mijozlar uchun quyidagi ijobiy jihatlarni ta'minlaydi:

banklar jalb qilingan va o'z mablag'laridan samarali foydalanadi;

tijorat banklari mijozlari mablag'larini bank talabiga ko'ra kreditni qaytarishga yo'naltirish mumkin;

kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tezkor va kredit olish imkoniyatlari yuqori;

ushbu kreditlash shakllarining ko'p maqsadliligi ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag'larini aylanishini tezlashtiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi;

mijozlar foydalangan kredit miqdori va muddatiga muvofiq foiz to‘lovlarni to‘laydi;

kreditlash jarayonida resurslardan samarali foydalanish bilan birga, bank likvidliligini ta‘minlaydi va boshqaradi;

tijorat banklari kreditlash faoliyatida kredit resurslari ma‘lum davomiylik asosida berilishi hisobiga kredit riskini pasayishini ta‘minlaydi.

Tijorat banklari tomonidan kreditlashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish orqali respublikamiz banklarining kreditlash samaradorligi oshiriladi. Xususan, banklarning kredit operatsiyalari hajmi oshadi va kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqaror o‘sishi ta‘minlanadi.

3. Banklarda mijozlarning kreditga layoqatliligi ko‘rsatkichlarini baholash tizimini takomillashtirish. Respublikamiz tijorat banklari amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda muammolarni mavjudligi kredit portfeli sifatiga va uning barqaror o‘sishiga salbiy ta‘sir qilmoqda. Mijozning kredit to‘loviga layoqatligining to‘g‘ri baholanishi kreditlarning o‘z vaqtida to‘la qaytishini ta‘minlaydi.

4. Sifatli kredit portfelini shakllantirish va kredit monitoringini puxta tashkil etish va olib borish lozim. Kreditlash operatsiyalarining hajmi ko‘lamdorligi bilan birgalikda ularning risklilik darajasi oshib ketmasligi va sifatining yuqori bo‘lishi ham lozim. Agarda bank kreditlarining sezilarli darajada kata qismi bir sohada to‘planadigan bo‘lsa, bu sohadagi salbiy o‘zgarishlar kreditning qaytmasligiga, bu esa, o‘z navbatida, bank foydasi tushishiga olib keladi. Tijorat banklari sifatli kredit portfelini shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to‘g‘ri va sifatli olib borishi zarur. Kreditlar ajratish borasida qarorlar qabul qilishda banklarning kredit qo‘mitalari va mas‘ul xodimlarining javobgarligini oshirish, kreditlardan foydalanish va qaytarilishi monitoringining mexanizmlarini bir xillashtirish, ular bo‘yicha risklarni o‘z vaqtida aniqlash, sifatli baholash va bartaraf etish, shuningdek, kreditlar bo‘yicha muammoli qarzdorliklarni paydo bo‘lishini oldini oluvchi choralar qabul qilish orqali tijorat banklarining kreditlash operatsiyalarini samarali tashkil etish va yuqorida berilgan barcha tavsiyalarni imkon qadar amaliyotga joriy etgan holda ularni takomillashtirish mumkin deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni. – Foydalanish manbai: www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yil 10 dekabrda 2696-3- son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yoqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Nizom. – Foyqdalanish manbai: www.cbu.uz
3. Лексис В. Кредит и банки. – М., 1994. – 118 с.
4. Лаврушин О.И. Роль кредита в экономическом развитии//Банковское дело. – Москва, 2011. №2. С. 36-37.
5. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017. – 242-245-b.
6. Xoldorov. Sh.O. Tijorat banklarida qo‘llaniladigan kreditlash shakllari va ularni amalga oshirish tartibi (PhD). Diss. Avtorefer. – Toshkent, 2018y
7. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.